

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrası o'qituvchisi Mirzayeva
Gulasalning ochiq dars muhokamasining
BAYONNOMASI № 16

04.04.2025

Qatnashdilar: kafedra a'zolari

Kun tartibi: Xorijiy til va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi Mirzayeva Gulasalning ochiq dars muhokamasi.

Eshitildi:

Yig'ilishni "Xorijiy til va adabiyoti" quyi kurslar kafedrası mudiri

V.Tangriyevkirish so'zi bilan ochdi. Bugungi yig'ilishda kafedraning katta o'qituvchisi Mirzayeva Gulasalning 04-aprel, 2025-yilda pedagogika fakulteti, psixologiya yo'nalishi 1-bosqich 112-PS -guruhida "Xorijiy til" fanidan "Four weekends, weekend activities" mavzusida o'tkazgan ochiq dars muhokama qilishni ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, ingliz tili fani katta o'qituvchisi M.Sobirjonova amaliy dars mashg'uloti davomida o'z munosabatini bildirib, quyidagilarni bayon qildi: Dars jarayoni to'g'ri tashkil qilinganligi, dars davomida, zamonaviy AKT vositalaridan foydalanganligini ta'kidlab, ya'ni "group work" dan darsning asosiy qismida foylanish muhim ahamiyatga ega ekanligi aytib o'tildi. Mavzuga doir taqdimotdan, video materiallardan, mustahkamlovchi savollardan, tarqatma materiallardan, ko'rgazmali qurollardan, vaqtdan unumli foydalanganligini ta'kidlab o'tdi.

Shundan keyin, ingliz tili fani o'qituvchisi N.Xo'shbaqova so'zga chiqib quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: «Dars interaktiv o'yinlar asosida tashkil qilindi, o'tilgan mavzular yuzasidan savol-javoblar tashkil qilindi, vazifa tarqatma materiallar asosida so'raldi, savol-javoblar asosida talabalar baholandi. Yangi mavzuni reja asosida talabalar guruhlariga bo'lingan holda bayon qilib berdi. O'qituvchi ya'ngi mavzuni to'ldirdi. Dars jarayonida turli xil o'yinlardan foydalandi, jumladan **kahoot.it** sayti orqali ham talabalarni darsga qiziqтира oldi.

Demak, o'qituvchi darsga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rgan. Shuning uchun bu darsni ijobiy deb baholayman». Dars yuqorida ko'rsatib o'tilgan ta'lim sifati bosqichiga mos ravishda tashkil etilgan. Ma'lumotlar tizimli, ilmiy va tushunarli bayon etildi. Darsda yuzaga kelgan ayrim kamchiliklar ta'kidlandi va bartaraf etishilishi tushuntirildi.

O'qituvchida ishchi dastur, dars rejasi, HEMIS platformada resurs joylashtirilganligi va mavzularni o'z vaqtida qayd etib borganligi tekshirildi.

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib kafedra yig'ilishi quyidagicha

Kafedra yig'ilishi qaror qildi:

Kafedra katta o'qituvchisi G.Mirzayevaning "Four weekends, weekend activities" mavzusida o'tkazgan ochiq dars talab darajasida deb topilsin va "namunali" bahoga baholansin.

Yig'ilish raisi:

Kotiba:



V.Tangriyev



M.Temirova

